

### **3-Mavzu: Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishni tashkiliy - iqtisodiy asoslari**

#### **Reja:**

1. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklar va uni tashkil etishning asosiy maqsadi va vazifalari. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishdagi ba'zi ijobiy tajribalari va obyektiv zaruriyati.
2. Ko'p tarmoqli ishlab chiqarishni tashkil etish yo'nalishlari hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishdagi muhim shartlar va tashkiliy - iqtisodiy asoslari.
3. Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun yer uchastkalarini berishda tanlov o'tkazish tartibi to'g'risidagi NIZOM.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22 oktyabr 2012 yildagi «O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonida ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil qilish va ularga yer-suv resurslaridan oqilona foydalanish, yangi ishlab chiqarishlar va xizmat ko'rsatish sohasini tashkil qilish hamda rivojlantirish va uzoq muddatli ijaraga berish tartibini aniqlash.

**Tayanch iboralar: amortizasiya, asosiy kapital, aylanma kapital, joriy ta'mir, kapital, kapital ta'mir, lizing, mashina ta'miri, traktor ishlarini bajarishning zagon usuli.**

#### **Foydalangan adabiyotlar.**

##### **Asosiy adabiyotlar**

1. Samatov G.A., Yodgorov J.Yo., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Darslik. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi». - Toshkent: ToshDAU taxririyaat- nashriyat bo'limi, 2005. - 508 b.
2. **Samatov G.A., Rustamova I.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish. Ma'ruza matni. - Toshkent: ToshDAU taxririyaat-nashriyat bo'limi, 2008. - 120 b.**
3. Samatov G.A., Rustamova I.B., Gaybullayev O.B. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish fanidan amaliyot darslari uchun uslubiy ko'llanma. - Toshkent: ToshDAU taxririyaat- nashriyat bo'limi, 2008. - 120 b.
4. Jo'rayev F. Qishloq xo'jalik korxonalarida ishlab chiqarishni tashkil etish. Darslik. -Samarqand: Samarqand qishloq xo'jalik instituti, 2004y.
5. Xakimov.R, Yusupov.E.D. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". O'quv qo'llanma. Toshkent- 2004 y.

##### **Xorijiy adabiyotlar:**

1. Agrarmanagement Jens Pape, Clemens Morath, Reiner doluschitz ISBN-10:3-8252-3587-4, EAN:978382523587
2. Barrick, R. K. Harmon, H. L. Animal Production and Management Ed: Gregg Division McGraw-Hill (1988-02-01) ISBN 10: 007003852X / ISBN 13: 9780070038523
3. Connor, D. J.; Loomis, R.S.; Cassman, K.G. 2011. Grop Ecology. Productiviti and Management in Agricultural Systems. University Press ISBN: 9780521744034.
4. Modernes Agrarmanagement: Betriebswirtschaftliche Analyse-und Planungsvefahren MuBhoff, Hirschauer (2013) 3. Auflage, Vahlen-Verlag, Munchen.

### **3.1. Fermer xo'jaligini tashkil etish va rivojlanish asoslari**

Fermer xo'jaligi o'ziga tanlov asosida va ijara shartnomasiga ko'ra uzoq muddatli ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqarishi bilan

shug'ullanuvchi, yuridik shaxs huquqlariga ega bo'lgan mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

*Fermer xo'jaligi tuman (shahar) hokimligida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomini oladi va o'z nomidan shartnomalar tuzish, mulkiy va mulkiy tusda bo'lmagan huquq va majburiyatlarga ega bo'lish, shuningdek bank muassasasida hisob raqami ochish, muhr, shtamp va boshqa rekvizitlarga ega bo'lish huquqini oladi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.*

*Fermer xo'jaligi davlat majburiyatlari yuzasidan, davlat esa fermer xo'jaliklari yuzasidan javob bermaydi.*

Fermer xo'jaligi o'z majburiyatlari bo'yicha, shu jumladan tuzilgan kontraktasiya shartnomalariga muvofiq nazarda tutilgan hajmlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berishni ta'minlash, shuningdek yetkazib berilgan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida haq to'lash yuzasidan majburiyatlari bo'yicha qonun hujjatlariga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo'lgan mol-mulki bilan javob beradi.

Fermer xo'jaligining mol-mulki daxlsizdir va uning davlat organlari tomonidan olib qo'yilishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollardan tashqari yo'l qo'yilmaydi,

***Fermer xo'jaligining maqsadi vazifalari va faoliyati. Tovar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish yo'li bilan daromad (foyda) olish, o'zining ijtimoiy va iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish fermer xo'jaligining maqsadi hisoblanadi.***

Fermer xo'jaligining vazifalari faoliyat sohasi quyidagilardan iborat:

- ajratilgan yer va suv resurslaridan oqilona va maqsadli foydalanilishini ta'minlash;
- tuproq unumdorligini saqlash va oshirish hamda yerlarni muhofaza qilish;
- mustaqil ravishda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash va sotish, shuningdek xizmatlar ko'rsatish.
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash, shuningdek bozorlarda, shu jumladan o'z savdo shaxobchalari orqali sotish;
- tijorat faoliyati va marketing tadqiqotlarini tashkil qilish;
- yuridik va jismoniy shaxslarga pulli xizmatlar ko'rsatish;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish;
- faoliyatning qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turlarini amalga oshirish.

***Fermer xo'jaligi quyidagi huquqlarga ega:***

Fermer xo'jaligi yuridik shaxs sifatida mustaqil xo'jalik yurituvchi subyektning barcha huquqlariga ega bo'ladi. Fermer xo'jaligi tadbirkorlik shakllaridan biri bo'lib, tashkil etilishidan ko'zlangan maqsadlarga erishish uchun tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga haqlidir. Fermer xo'jaligi xo'jalik yuritishning boshqa shakllaridagi korxonalar bilan teng huquqlarga ega.

- nizomda nazarda tutilgan doirada va ijara shartnomasida belgilangan ixtisoslashuvga muvofiq fermer xo'jaligining ishlab chiqarish faoliyatini o'ziga berilgan yer uchastkasida mustaqil tashkil etish;

- yetishtirilgan mahsulotni sotish yuzasidan yuridik va jismoniy shaxslar bilan, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun sotish yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq xo'jalik shartnomalari tuzish;

- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers bitimlari tuzish;
- o'zi yetishtirgan mahsulotga egalik qilish, shulardan uni o'zi xohlagan iste'molchilarga sotish;

- yetishtirilayotgan mahsulotga va xizmatlarga shartnoma shartlarida mustaqil ravishda narx belgilash;
- qishloqqa xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari yetkazib berish, xizmatlar ko'rsatish yuzasidan to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar tuzish;
- tadbirkorlikdan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq solinadigan cheklanmagan miqdorda daromad (foyda) olish;
- olingan daromad (foyda) dan o'z ixtiyoriga ko'ra foydalanish, bank hisob raqamidagi o'z mablag'larini mustaqil ravishda tasarruf etish;
- aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olish;
- kreditlar olish, boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning mol-mulki hamda mablag'larini ixtiyoriylik asosida va shartnoma shartlariga muvofiq jalb qilish hamda ularni ishlab chiqarish va takror ishlab chiqarishga yo'naltirish;
- kredit olish uchun yer uchastkasidan foydalanishni, ijaraga berish huquqini va yetishtirilgan mahsulotni garovga qo'yish;
- kichik va xususiy korxonalar uchun berilgan imtiyozlarning barcha turlaridan foydalanish;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda xodimlarni ishga yollash (doimiy va vaqtinchalik asosida) va ular bilan tuzilgan mehnat shartnomalarini bekor qilish;
- zarur asbob-uskunalar, ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, ijaraga olish, bino va inshootlar qurish hamda ularni ta'mirlash, shuningdek ulardan mustaqil foydalanish;
- ixtiyoriy ravishda birlashish, shu jumladan ulush (pay) asosida birlashish, jamiyatlar, ittifoqlar, uyushmalar hamda boshqa birlashmalarga kirish;
- o'z huquqlarini himoya qilish uchun o'z faoliyatining har qanday masalalari bo'yicha sudga murojaat qilish.

Fermer xo'jaligi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan ham foydalanadi.

***Fermer xo'jaligi quyidagi majburiyatlarga ega:***

- yer uchastkasidan ijara shartnomasida belgilangan maqsad va shartlarda maqsadli, samarali va oqilona foydalanilishini ta'minlash;
- ekologiya talablariga va atrof muhitni muhofaza qilishning boshqa qoidalariga rioya etish;
- yerning meliorativ holatini yaxshilash va yer uchastkasining unumdorligini oshirish chora- tadbirlarini amalga oshirish, biznes-rejalarda ushbu maqsadlar uchun mablag'lar ajratilishini nazarda tutish;
- yer uchastkasidan, basharti ijara shartnomasida boshqa muddat belgilangan bO'lmasa, bir yil mobaynida foydalanish;
- paxta va g'allani navlar bo'yicha joylashtirishning belgilangan talablariga rioya qilish;
- suvdan limit asosida foydalanish to'g'risidagi shartnomaga muvofiq suv resurslaridan foydalanish;
- xo'jalik ichki meliorasiya tarmog'ini tozalash va ta'mirlash;
- yer uchastkasidan foydalanish shartlariga va servitutlarga rioya etish;
- fermer xo'jaligining majburiyatlari va qarzlari yuzasidan to'liq javob berish;
- tuzilgan kontraktasiya shartnomalariga muvofiq nazarda tutilgan hajmlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib berishni ta'minlash;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida to'lash;

- yetkazib berilgan elektr energiyasi, yonilg'i- moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari, ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'z vaqtida hisob-kitob qilish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va boshqa mahsulotlar yetishtirishda standartlar talablariga rioya qilish;

- qishloq xo'jaligi zararkunandalari va kasalliklariga qarshi kurash olib borish.

Fermer xo'j aligi qonun hujj atlarida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi.

***Fermer xo'jaligi:***

- o'ziga qarashli xo'jalik imoratlari, qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlari, dov-daraxtlar, mahsuldor chorva mollari, parrandalar, qishloq xo'jaligi texnikasi, inventar, asbob-uskunalar, transport vositalari, pul mablag'lari, intellektual mulk obyektlari, shuningdek fermer xo'jaligi balansida bo'lgan boshqa mol-mulkning;

- ishlab chiqarish faoliyati natijasida yetishtirilgan mahsulotning;

- olingan daromad (foyda)ning;

- qonunda taqiqlanmagan asoslarda olingan boshqa mol-mulkning egasi hisoblanadi.

Fermer-fermer xo'jaligining muassisi va rahbari hisoblanadi. U o'n sakkiz yoshga to'lgan, muomalaga layoqatli, qishloq xo'jaligida tegishli malaka oshirgan va ish tajribasiga ega bo'lishi kerak.

***Fermer xo'jaligining rahbari:***

- fermer xo'jaligi nizomini qabul qiladi va unga belgilangan tartibda o'zgartirishlar kiritadi;

- fermer xo'jaligi faoliyatining biznes-rejasini tasdiqlaydi;

- fermer xo'jaligi faoliyatini tashkil qiladi;

- yuridik va jismoniy shaxslar bilan o'zaro munosabatlarda fermer xo'jaligi nomidan ish ko'radi;

- ishonchnomalar beradi, shartnomalar tuzadi va ularning bajarilishini ta'minlaydi, shuningdek fermer xo'jaligi xodimlari bilan mehnat shartnomalarini imzolaydi;

- fermer xo'jaligi xodimlari o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi;

- ichki mehnat tartibi qoidalarini belgilaydi;

- daromadni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi;

- xodimlarning xavfsiz hamda unumli mehnat qilishlari uchun sharoit yaratib beradi;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat daftarchalari yuritilishini tashkil etadi, ish haqini to'lanishini ta'minlaydi, mehnatga haq to'lash miqdorini va moddiy rag'batlantirish usullari va intizomiy jazo choralarini belgilaydi;

- fermer xo'jaligi nomidan hujjatlarni imzolaydi;

- fermer xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish masalalarini hal etadi.

***Fermer xo'jaligida yerdan va suvdan foydalanish. Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer uchastkalarini tanlov asosida ijaraga beriladi. Ijara muddati 30-yildan 50 yilgacha.***

Yer uchastkasining ijara muddati tamom bo'lgandan keyin fermer xo'jaligi ijara shartnomasini yangi muddatga uzaytirish (muddatini cho'zish) huquqiga egadir.

Fermer xo'jaligi rahbari vafot etgan taqdirda, yer uchastkasiga ijara huquqi va ijara shartnomasini yangi muddatga uzaytirish (muddatini cho'zish) huquqi meros bo'yicha o'tadi.

Fermer xo'jaliklarining yer uchastkalaridan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi», «Fermer xo'jaligi to'g'risida»gi va boshqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yer uchastkalarining o'lchami va chegaralari yer ijarasi shartnomasiga o'zgartirishlar kiritilgandan keyingina o'zgartirilishi mumkin.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkalari xususiylashtirilishi, oldi-sotdi, hadya, ayirboshlash, garov obyekti bo'lishi, shuningdek ikkilamchi ijaraga berilishi mumkin emas.

Fermer xo'jaligiga ijaraga berilgan qishloq xo'jaligi yerlari maqsadsiz foydalanilganda, shu jumladan shartnomada nazarda tutilgan qishloq xo'jaligi ekinlari o'rniga boshqa ekinlar ekilishi ijara shartnomasini qo'pol ravishda buzish hisoblanadi.

Fermer xo'jaligiga berilgan yer uchastkasidan foydalanganlik uchun to'lanadigan haq yagona yer solig'i tariqasida undiriladi.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaligi xo'jalikning biznes-rejasida nazarda tutilgan kamida 30 shartli bosh chorva mollarini boqish shartlari bilan tashkil etiladi. Bunda shartli ravishda har bir bosh mol hisobiga quyidagi koeffitsiyentlardan foydalaniladi: qoramollar va otlar uchun 1.0, yosh qora-mollar uchun - 0.6, qO'y va echkilar uchun-0.1, chO'chqalar uchun -0.3, hamda parrandalar uchun-0.025.

Fermer xo'jaligiga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami har bir shartli bosh chorva moliga hisoblanganda:

- Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda-kamida 0.30 gektarni;

- Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo va Sirdaryo viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida -0.45 gektarni;

- sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlarda -kamida 2 gektarni tashkil etadi.

Dehqonchilik mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashayotgan fermer xo'jaliklariga ijaraga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami:

- paxtachilik va g'allachilik uchun kamida-10 gektarni

- bog'dorchilik va uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa ekinlar yetishtirish uchun - kamida 1 gektarni tashkil qiladi.

Yer uchastkasi fermer xo'jaligiga imkoni boricha yagona mavze bo'yicha, konturlar yaxlitligi saqlab qolingan holda beriladi, uchastka chegaralari sug'orish tarmoqlari, kollektorlar, yo'llar va boshqa topojadval elementlar bo'yicha belgilanadi. Fermer xo'jaligiga berilayotgan yer uchastkasi boshqa yerdan foydalanuvchilarning yerlardan foydalanishi uchun noqulayliklar vujudga keltirmasligi kerak.

Fermer xo'jaliklarining suvdan foydalanish limitlari vakolatli organlar tomonidan belgilanadi va suv sarfini hisobga olish hamda undan foydalanish, suv yetkazib berish, xizmatlarga haq to'lash, shuningdek imtiyozlar berish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

***Fermer xo'jaligida mehnat. Fermer xo'jaligining faoliyati fermerning va mehnat shartnomasi bo'yicha unda ishlovchi shaxslarning shaxsiy mehnatiga asoslanadi, mehnat faoliyati hisobini yuritish fermer xo'jaligi rahbari tomonidan tashkil etiladi va haq to'lash qonun hujjatlarida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda, tomonlarning kelishuviga binoan ham pul tarzida, ham natura tariqasida to'lanadi.***

Fermer xo'jaligida ishlangan vaqt mehnat stajiga qo'shiladi. Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar va pensiyalar tayinlash hamda to'lash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladi.

***Fermer xo'jaligining mablag'lari va hisob-kitoblari.***

Fermer xo'jaligi pul muomalasini yuritish hamda pul mablag'larini saqlab turish va bu mablag'larni erkin tasarruf etish uchun bank muassasida hisob raqamlari ochish huquqiga ega. Fermer xo'jaligining hisob raqamidan mablag'larni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda

hisobdan chiqarish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlari, shu jumladan paxta va g'alla hosili uchun sarflangan barcha xarajatlar fermer xo'jaligining mahsulotlarni sotishdan olingan daromadlari hisobiga qoplanadi.

Fermer xo'jaliklari elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar yetkazib beruvchilar va fermer xo'jaliklariga xizmatlar ko'rsatuvchilar bilan o'z vaqtida hisob-kitob qilishlari lozim.

***Daromad (foyda)ni taqsimlash va zararlarni qoplash tartibi. Fermer xo'jaligining ishlab chiqarish va boshqa faoliyati natijasida olingan daromad (foyda) soliqlar, yig'imlar hamda boshqa***

majburiy to'lovlar to'langandan, elektr energiyasi, yonilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar, o'simliklarni kimyoviy himoya qilish vositalari yetkazib beruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar bilan o'z vaqtida va to'liq hisob-kitob qilingandan keyin butunlay fermer xo'jaligining ixtiyoriga o'tadi.

Shartnoma shartlari bajarilmaganligi natijasida fermer xo'jaligiga yetkazilgan zarar uning mol- mulki va boshqa manbalar hisobidan qoplanadi.

***Fermer xo'jaliklarining birgalikdagi faoliyati. Fermer xo'jaliklari ixtiyoriylik asosida birlashish, shu jumladan ulush (pay) asosida birlashish, mahsulot yetishtirish, xarid qilish, uni qayta ishlash, sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'sinidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha jamiyatlarga, ittifoqlarga, uyushmalarga hamda boshqa birlashmalarga kirish huquqiga ega.***

***Fermer xo'jaligi faoliyati natijalarini hisobga olish va nazorat qilish. Fermer xo'jaligi o'z faoliyatining natijalarini hisobga olib boradi hamda mahalliy statistika va soliq organlariga belgilangan tartibda hisobot taqdim etadi.***

Fermer xo'jaligi tekshirish huquqini beruvchi tegishli hujjat ko'rsatilishini talab qilish, tekshiruvchilarning o'z vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha talablarini bajarmaslik va ularni tekshirish mavzusiga tegishli bo'lmagan materiallar bilan tanishtirmaslikka haqlidir.

***Fermer xo'jaligini qayta tashkil etish va tugatish.***

Fermer xo'jaligi quyidagi hollarda:

- yer uchastkasini ijaraga olish huquqidan ixtiyoriy ravishda voz kechilganda;
- xo'jalik faoliyatini davom ettirish istagida bo'lgan merosxo'r bo'lmaganda;
- fermer xo'jaligi bankrot deb e'lon qilinganda, shu jumladan elektr energiyasi, yoqilg'i-moylash materiallari, mineral o'g'itlar va xizmatlar ko'rsatuvchilar bilan muntazam ravishda, kamida uch yil o'z vaqtida to'liq hajmda hisob-kitob qilmaganda;
- yer uchastkasini davlat ehtiyojlari va boshqa jamoat ehtiyojlari uchun olib qo'yish zarur bo'lgan yohud yer to'g'risidagi qonunlar fermer xo'jaligi tomonidan buzilgan taqdirda yer uchastkasining ijara shartnomasi belgilangan tartibda bekor qilinganda, fermer xo'jaligi tomonidan yer uchastkasidan maqsadsiz foydalanilganda, shu jumladan davlat ehtiyojlari uchun kontraktasiya shartnomasida nazarda tutilmagan ekinlar ekilganda tugatiladi.

Fermer xo'jaligi:

- fermer xo'jaligi fermerning qaroriga binoan;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda sudning qaroriga binoan tugatiladi.

### **3.2 O'zbekistonda fermerlikni rivojlantirishni ustuvorligi. Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish**


Qishloq xo'jaligida davom etayotgan tarkibiy o'zgarishlar jarayoni fermerlikni, dehqon xo'jaliklari bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil qilishning asosiy shakllaridan biriga aylantirdi. Qayta tuzish jarayoni qishloq xo'jaligi korxonalarining (shirkat

xo'jaliklarining) tarmoq yalpi mahsulotidagi ulushini 2005 yildagi 14,0 foizdan 2013 yilda 2,0 foizgacha yoki 12,0 foizli qisqarishiga olib keldi. Fermer xo'jaliklarini rivojlantirishni rag'batlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish ularning barqaror va samarali rivojlanishida muhim omil hisoblanadi.

1-chizma

### Xo'jalik yuritish toifalari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish tarkibi

(2005-2013yy.) (%da)



Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan shirkat xo'jaliklari muayyan kamchiliklarni bartaraf etishning yagona va maqbul yo'li ularni fermer xo'jaliklariga aylantirish ekanligida namoyon bo'ldi. Shu nuqtai nazardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 607-sonli qarori qabul qilinib, unga ko'ra, 2005-2007 yillar mobaynida zarar ko'rib ishlaydigan, past rentabelli va istiqbolsiz 1110 shirkat xo'jaliklarini fermer xo'jaliklariga aylantirish hamda shu davr mabaynida qishloqlarda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirishning yangi dasturi ishlab chiqildi. Jumladan, 2005 yilda 406 ta, 2006 yilda 370 ta, 2007 yilda 334 ta istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari tugatilib, ularning negizida tanlov asosida 146914 fermer xo'jaliklari tashkil etildi.

Prezidentimizning 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-3709-sonli Farmoni ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-255-sonli qarori qabul qilinishi respublikamizda meva-sabzavotchilik sohasini rivojlantirishga yuksak darajada davlat e'tibori qaratila boshlanganligidan dalolat beradi.

Ushbu me'yoriy hujjatlar asosida meva-sabzavotchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan shirkat xo'jaliklari o'rnida fermer xo'jaliklari ochiq va adolatli tanlovlar o'tkazish yo'li bilan tashkil etilib, mavjud bog' va uzumzorlar kimoshdi savdosida sotilishi va bog'lar joylashgan yer maydonlari uzoq muddatli ijara asosida fermerlarga birlashtirilishi, bog'dorchilik sohasida ham fermer xo'jaliklarining keng rivoj topishini ta'min etdi.

Ammo, bog'dorchilik yo'nalishida tashkil etilgan fermer xo'jaliklari o'lchamlari juda kichikligi (o'rtacha 1,5-2,5 ga) bilan birgalikda, yirik qishloq xo'jaligi korxonalarini qayta tashkil etish natijasida bitta shirkat xo'jaligi o'rnida 300-400 fermer xo'jaliklari paydo bo'lishi yetishtirilgan mahsulotni tayyorlash, tashish, saqlash va sotish, shuningdek, moddiy-texnika

ta'minoti borasidagi fermerlar faoliyatini muvofiqlashtirishda bir qator muammolar yuzaga keladi. Shu bois bunday muammolar paydo bo'lishining oldini olish, mavjud muammolarning samarali yechimlarini topish maqsadida fermer xo'jaliklari va hududdagi boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, qayta ishlovchilar, savdo va transport tarmog'i korxonalari tomonidan ixtiyoriylik asosida agrosanoat firmalari tashkil etildi.

Yangidan tashkil etilgan bog'dorchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklari yagona yer solig'i to'lashdan 5 yil muddatga; fermer xo'jaliklari, qayta ishlash va xizmat ko'rsatish sohasi korxonalari ishtirokida ixtiyoriylik asosida yangidan tashkil etilgan agrosanoat firmalari esa daromad (foyda) solig'i to'lashdan, yer solig'i, mulk solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i (importga qo'shilgan qiymat solig'idan tashqari), yagona soliq to'lovi to'lashdan - 3 yil muddatga ozod qilindi.

Ayni paytda soliq solishdan bo'shaydigan mablag'lar maqsadli ravishda meva-sabzavotni qayta ishlash sohasini rivojlantirish, yangi bog' va uzumzorlar yaratish, kengaytirishga yo'naltirilishi qat'iy belgilab qo'yildi. Ushbu tadbirlar yangi bog' va uzumzorlar barpo etilishini hamda mavjudlarining hosildorligini oshirishni, agrosanoat firmalari tashkil qilishni rag'batlantiruvchi muhim iqtisodiy dastak vazifasini o'tadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirishga qaratilgan takliflar tayyorlash bo'yicha maxsus komissiya tuzish to'g'risida" 2004 yil 4 noyabrdagi F-2069-son Farmoyishini bajarish yuzasidan hamda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish va yuritishning asosiy shakli sifatida fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrda 607-sonli "2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklarini jadal rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, mazkur qarorga binoan O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda maxsus komissiya tomonidan ishlab chiqilgan zarar ko'rib ishlaydigan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini 2005-2007 yillarda fermer xo'jaliklariga aylantirish dasturi; 2005 yilda fermer xo'jaliklariga aylantiriladigan istiqbolsiz shirkat xo'jaliklari ro'yxati; 2005-2007 yillar davrida qishloqda ishlab chiqarish va bozor infratuzilmasini rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.

### **Fermer xo'jaliklarining yer maydonlarini optimallashtirish.**

Fermer xo'jaliklari faoliyatini chuqur tahlil qilish amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramay, hali ham fermer xo'jaliklari faoliyatida bir qator kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, ayrim fermerlar tomonidan yer maydonlaridan samarasiz foydalanilayotganligi, moliyaviy-iqtisodiy ahvolining surunkali nobarqarorligi, moddiy-texnika resurslari bilan yetarlicha ta'minlanmaganligi, yer ajratishda hududlarning tuproq-iqlim sharoiti, aholi zichligi va bandligi kabi masalalar inobatga olinmaganligi, shuningdek xo'jaliklarning tarmoq ixtisosligi (paxta va g'allachilik, bog' va uzumchilik, sabzavot va polizchilik, chorvachilik va boshqalar) bo'yicha yer uchastkalari maqbul bo'linmaganligi kabi masalalar aniqlandi.

Shuning uchun ham, fermer xo'jaliklari ixtiyoridagi yer maydonlarini optimallashtirish jarayonini amalga oshirish, barqaror iqtisodiy faoliyat uchun asos yaratish maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqish taqozo etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktyabrdagi F-3077 sonli "Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalarini maqbullashtirish chora-tadbirlari bo'yicha takliflar

ishlab chiqish maqsadida maxsus komissiyani tashkil qilish to'g'risida"gi Farmoni qabul qilinishi ushbu jarayonning boshlanishi bo'ldi.

Ushbu Farmoyishga ko'ra quyidagi vazifalar amalga oshirildi:

- yer uchastkasini birlashtirish yuzasidan fermer xo'jaliklari bilan yer ijara shartnomalarini tuzish ishlarini yakunlash. Shartnomalar tuzilgandan keyin yer resurslari bo'yicha tumanlar xizmati vakillari bilan fermer xo'jaliklari rahbarlari ishtirokida ijaraga berilgan yer uchastkalarining chegaralari dalolatnomalar asosida (fermer xo'jaligining yer uchastkasi chegaralarini ko'rsatish dalolatnomasi) rasmiylashtirildi;

- yer uchastkalari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklari bo'yicha tumanlar hokimlari tomonidan qabul qilingan qarorlarni viloyatlar hokimi qarorlari bilan tasdiqlash oxiriga yetkazildi;

- fermer xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvchi va ta'minot tashkilotlari bilan shartnomalar tuzishni tashkil qilish hamda uning ijrosi bo'yicha qat'iy va muntazam monitoring yuritish yo'lga qo'yildi;

- yer uchastkalari maqbullashtirilgan fermer xo'jaliklarining debitor va kreditor qarzlari to'liq uning vorisi zimmasiga o'tkazildi;

- fermer xo'jaliklari hududidagi irrigasiya-meliorasiya tarmoqlarini ishchi holatda saqlashni ta'minlash, bunda ularni o'z vaqtida tozalash va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish hisobiga yerlarning meliorativ holatini yaxshilab borish yo'lga qo'yildi;

- tutzor va yakka qatordagi tut daraxtlari fermer xo'jaliklari balansiga o'tkazildi;

- mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, butun mavsum davomida suv taqsimoti qonun-qoidalariga to'liq rioya etish, zamonaviy suvni tejash texnologiyalarini joriy etib borish yo'lga qo'yildi.

Qishloq xo'jaligida fermer xo'jaliklarini yiriklashtirishda quyidagi omillar e'tiborga olindi:

- yer maydonlari kichik bo'lgan va ulardan oqilona foydalanilmagan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yer maydonlarida oxirgi 3 yil davomida belgilangan kadastr bahosidan past hosil yetishtirgan, tuproq unumdorligining pasayishiga yo'l qo'ygan;

- qonunda belgilangan muddatlarda yagona yer solig'i, boshqa turdagi soliqlar va to'lovlarni muntazam ravishda to'lamagan hamda yirik miqdorda qarzdor bo'lgan;

- davlat ehtiyojlari uchun xarid qilinadigan qishloq xo'jalik ekinlarini to'liq hajmlarda ekmagan va ular bo'yicha tuzilgan shartnomaviy majburiyatlarni surunkasiga bajarmagan;

- mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanmagan, irrigasiya-meliorasiya va boshqa agrotexnik tadbirlarni o'z muddatida hamda sifatli bajarmagan fermer xo'jaliklari bilan tuzilgan yer ijara shartnomalari bekor qilindi.

Mazkur farmoyish ijrosini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan maqbullashtirish jarayonida respublikamizdagi fermer xo'jaliklarining soni 215 ming 776 tadan 105 ming 200 tagacha yoki 52 foizga kamaydi. Ayni vaqtda fermer xo'jaliklarining o'rtacha yer maydonlari 27,4 gektardan 56,5 gektargacha ko'paydi.

Bugungi kunda fermer yer va o'zi ishlab chiqargan mahsulotning egasi bo'lib, o'z mehnatining natijasidan bevosita manfaatdordir. Natijada fermerlarning dunyoqarashi tubdan o'zgardi, ularda yer- suv resurslaridan oqilona foydalanish uchun mas'uliyat hissi kuchaydi.

Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 22 oktyabrdagi «Fermer xo'jaliklari tasarrufidagi yer uchastkalari maydonlarini yanada maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi F-3287-son farmoyishi va 2010 yil 18 oktyabrdagi shu masalaga bag'ishlangan F-3512-son farmoyishi ijrosini ta'minlash maqsadida birmuncha ijobiy ishlar amalga oshirildi, jumladan, yer maydonlari to'liq inventarizasiyadan o'tkazilib, fermer xo'jaliklarining faoliyatini

tanqidiy baholash asosida ularning yer maydonlarini maqbullashtirish bo'yicha keng ko'lamli, shuningdek, puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi. 147 mingga yaqin fermerlar soni qisqartirilib, ularning o'rtacha yer maydoni 26 dan 44 gektargacha kengaydi. 2013 yil boshiga kelib fermer xo'jaliklari soni mamlakatimiz bo'yicha 73449 tani, ularga uzoq muddatga (30 yildan 50 yilgacha) ijaraga berilgan yer maydoni 4,95 million gektarni tashkil etadi. Bitta fermer xo'jaligiga to'g'ri keladigan ekin maydonlari o'rtacha 2005 yildagi 30,0 gektardan 2013 yilda 84,8 gektargacha oshdi.

Jami fermer xo'jaliklarining qariyb 50 foizdan ortig'i (37567 tasi) paxta va g'alla yetishtirishga ixtisoslashgan. Qolgan qismi esa sabzavot va polizchilikka (3715 tasi), chorvachilikka (7506 tasi), bog'dorchilik va uzumchilik (17068 tasi), shuningdek, asalarichilik, baliqchilik va boshqa turdagi faoliyat bilan shug'ullanadi.

Bunday yuqori natijalarga erishilishining asosiy omillari quyidagilardir:

- birinchi galda tarmoqdagi real ahvolni hisobga olgan hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda qishloq xo'jaligini iqtisodiy isloh qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi;

- qishloqda bozor munosabatlarining joriy etilishi va xususiy mulkchilik shaklining rivojlantirilishi;

- fermerlik harakatini barqaror rivojlantirish uchun huquqiy, tashkiliy, moliyaviy va zamonaviy agroiinnovasion shart-sharoitlar yaratilgan;

- dehqonlar, fermerlar va mexanizatorlarning, qishloq xo'jaligi bo'yicha barcha mutaxassislarning kasbiy mahorati va o'z ishiga sodiqligi, shuningdek, qishloq xo'jaligidagi barcha resurslar va imkoniyatlarning to'liq safarbar qilinishi.

Biroq, Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Shu bilan birga, tan olish kerakki, fermerlik xarakatining Fermer xo'jaliklari uyushmasi shaklidagi tashkiliy tuzilmasi qishloq xo'jaligini isloh etish va sohada ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, fermerlar oldida turgan vazifalarni hal etish jarayonlariga kuchli ta'sir ko'rsata olmadi.... Fermer xo'jaliklari uyushmasi O'zbekiston Fermerlar kengashiga, viloyat va tumanlarda esa fermerlar kengashlariga aylantirildi, eng muhimi, ushbu tuzilmalarning huquq va vakolatlari jiddiy ravishda kengaytirildi".<sup>1</sup>

Fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi va samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, ularga uzoq muddatli ijaraga yer uchastkalarini ajratish, qishloq xo'jaligi ekinlarini yetishtirish, ularni yig'ish, tashish, qayta ishlash va realizasiya qilish bilan bog'liq barcha masalalarni fermerlar kengashining bevosita ishtirokisiz hal etib bo'lmaydi. Shunday ekan, bugungi kunda fermer xo'jaliklarining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan barcha darajalardagi fermerlar kengashlari faoliyatiga bog'liq.

Fermerlik harakatini yanada barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy va moliyaviy mustaqilligini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "O'zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish"<sup>1</sup>Каримов И.А. Бош мақсадимиз - кенг куламли исло^отлар ва модернизация йулини катъият билан давом эттириш. Узбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий- иктисодий ривожлантириш якунлари хдмда 2013 йилга мулжалланган иктисодий дастурнинг энг мух,им устивор йуналишларига багишланган Вазирлар Ма^камасининг мажлисидаги маърузаси. "Халк сузи" 2013 йил 19 январь, 13-сон.

chora-tadbirlari to'g'risida" Farmon<sup>2</sup> imzolandi, unga muvofiq fermerlik harakatini tashkil qilish va boshqarish tizimi takomillashtirildi. Xususan, O'zbekiston Fermer xo'jaliklari uyushmasi,

Fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi tugatilib, O'zbekiston Fermerlar kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va tumanlarning fermerlar kengashlari tashkil etildi.

O'zbekiston Fermerlar kengashi tashkil etilganidan keyin mamlakatimizda tuzilgan 13 viloyat, 157 tuman fermerlari kengashlarini eng ilg'or fermer xo'jaliklari rahbarlari boshqarmoqda. Fermerlar kengashlari tarkibiga 1905 kishi kiritilgan bo'lib, ulardan 23 nafari respublika kengashi, 251 nafari - viloyat kengashlari va 1631 nafari - tuman kengashlari a'zolaridir.

Fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish asosan ularning quyidagi yo'nalishlar bo'yicha amalga oshiradigan ko'p qirrali faoliyatiga bog'liq: bog'dorchilik, poliz ekinlari yetishtirish, servis xizmatlari ko'rsatish, hosilni qayta ishlash, chorvachilik, baliqchilik, asalarichilik. 2013 yilda 17 482ta (26,4%) fermer xo'jaliklarini ko'p tarmoqli xo'jaliklarga aylantirish rejalashtirilgan. Bu ushbu xo'jaliklarga yetishtirilgan hosilni qayta ishlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot turlarini kengaytirish, yangi ish o'rinlarini yaratish, eksport faoliyatini keng yo'lga qo'yish hisobiga qo'shimcha daromad olish imkoni beradi.

2015 yil 15 dekabrda fermer xo'jaliklari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, shuningdek, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash, fermer xo'jaliklarining moliyaviy va iqtisodiy holatini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi. Qarorga asosan fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini xatlovdan o'tkazish, ulardan samarali va oqilona foydalanishini tashkiliy tahlil qilinadi.

Qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari tomonidan hududiy fermerlar kengashlari, fermer xo'jaliklari rahbarlari ishtirokida hamda jamoatchilikni keng jalb etgan holda fermer xo'jaliklarining moliyaviy va iqtisodiy holatini, fermer xo'jaliklari faoliyatini samarali amalga oshirish, yer uchastkasining ijara shartnomasi shartlarini, fermer xo'jaliklari va tayyorlov tashkilotlari o'rtasida, eng avvalo, davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish bo'yicha tuzilgan kontraktasiya shartnomalarini bajarish uchun moddiy texnika bazasining, mehnat resurslari va aylanma mablag'larning mavjudligi o'rganildi.

Fermer xo'jaliklarini yuritish uchun berilgan yer uchastkalari maydonlarini hududlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini, aholi zichligini, fermer xo'jaliklarining iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlarini nazarda tutib, ular ishlarining samaradorligini, tegishli kasbiy jihatdan tayyorlangan kadrlar salohiyati mavjudligini hisobga olgan holda yanada maqbullashtirish ishlari amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 oktyabr holatiga 83514 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 48264 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 2982 ta, bog'dorchilik- uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 19575 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 6770 tani tashkil etishgan.

O'zbekiston Respublikasida yer maydonlarini maqbullashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklarining soni 2015 yil 1 dekabr holatiga esa 101070 ta, shundan paxta-g'allachilik fermer xo'jaliklar soni 60695 ta, sabzavotchilik va polizchilik fermer xo'jaliklari soni 3655 ta, bog'dorchilik- uzumchilik fermer xo'jaliklari soni 24730 ta, chorvachilik fermer xo'jaliklari soni 6572 tani tashkil etdi.

Maqbulashtirish natijasida o'rtacha fermer xo'jaliklari yer maydoni 36,1 ga, paxta-g'allachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari o'rtacha yer maydoni 52,7 ga, bog'dorchilik-uzumchilik 6,8 ga, chorvachilik fermer xo'jaliklari 31,2 ga yerni tashkil etmoqda. Maqbulashtirish natijasida jami fermer xo'jaliklari soni 17556 taga oshgan

Qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar hozirgi kunda o'z samarasini bermoqda.

Fermer xo'jaligi mahsulot ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonida turli korxonalar va tashkilotlar xizmatidan foydalanadi. Ularning aksariyati texnika, o'g'it, yonilg'i va shu kabi resurslar yetkazib bersa, boshqalari mahsulotni qayta ishlash uchun sotib oladi va ijtimoiy xizmat ko'rsatadi. Ana shu toifadagi korxonalarni yagona bozorga birlashtiruvchi, ularning o'zaro bozor munosabatlarini amalga oshiruvchi, ularga ko'maklashuvchi tashkilotlar faoliyatini takomillashtirish hozirgi zamon talabidir.

Chunki meva, sabzavot, poliz, uzum yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarining ko'pchiligi hali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish, saqlash, qayta ishlash, eksportga chiqarish bilan bog'liq masalalarni mukammal o'zlashtirmaganliklari agrofirmalarni tashkil etish ehtiyojini keltirib chiqardi.

Agrosanoat firmasining Nizomi O'zbekiston Respublikasining "Fermer xo'jaliklari to'g'risida"gi, qonuni va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3709-sonli Farmoni, hamda 11 yanvardagi "Meva-sabzavotchilik va uzumchilik sohasini isloh qilish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi 255-sonli qarori asosida ishlab chiqilgan.